ERON ISLOM RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATIDA SIYOSIY TAHLIL MARKAZLARINING O‘RNI

Sultonboyev Asadbek
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi, 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatini shakllantirish jarayonida siyosiy tahlil markazlarining (think-tanks) o‘rni va roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eron siyosiy tizimining o‘ziga xosligi, xususan uning diniy-mafkuraviy asoslari va markazlashgan boshqaruv modeli aql markazlari faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi. Tahlil markazlar faoliyati misolida tashqi siyosatni ilmiy asoslash, strategik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash va siyosiy diskursni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ‘‘think-tanks’’, ‘‘viloyat al-Faqih’’, CSR, MRS, IIIS, SNSC, JCPOA.

KIRISh XXI asr xalqaro munosabatlar tizimi tobora murakkablashib borayotgan bir davrda davlatlarning tashqi siyosatini shakllantirishda faqat an’anaviy diplomatik mexanizmlar yetarli emas. Global siyosiy jarayonlarning ko‘p qirrali va tez o‘zgaruvchan tabiati davlatlardan chuqur tahlil, strategik rejalashtirish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Siyosiy tahlil markazlari davlat siyosatini ishlab chiqish, ilmiy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar berishda muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda aql markazlar siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, mustaqil ekspertiza, muqobil siyosiy yechimlar va innovatsion strategiyalar ishlab chiqishda katta rol o‘ynaydi.

Eron Islom Respublikasi siyosiy tizimi bilan alohida e’tiborni tortadi. 1979-yildagi Eron Islom inqilobi natijasida shakllangan siyosiy tuzum diniy-mafkuraviy asosga ega bo‘lib, unda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni nafaqat davlat institutlari, balki diniy rahbariyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bu esa siyosiy tahlil markazlarining faoliyati va ularning tashqi siyosatdagi o‘rnini o‘rganishni yanada dolzarb qiladi. Eron tashqi siyosati o‘zining murakkabligi va strategik moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Xususan, ‘‘viloyat al-Faqih’’ konsepsiyasi asosida shakllangan siyosiy qarashlar ustuvor bo‘lsa, boshqa tomondan pragmatik manfaatlar, milliy xavfsizlik masalalari va mintaqaviy geosiyosiy raqobat muhim rol o‘ynaydi. Shu bois Eron tashqi siyosatini tahlil qilishda faqat rasmiy bayonotlar yoki diplomatik harakatlar bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki ushbu siyosatni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki intellektual va analitik infratuzilmani ham chuqur o‘rganish zarur. Jumladan, Eron Islom Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi ‘‘Institute for Political and International Studies’’ (IPIS), ‘‘Center for Strategic Research’’ hamda Eron parlamenti huzuridagi ‘‘Forsat-e Majlis’’ kabi muassasalar tashqi siyosat masalalarida muhim tahliliy va maslahat beruvchi rolni bajaradi[1]. Mazkur tahlil markazlari Eron tashqi siyosatining konseptual asoslari ishlab chiqiladi, mavjud siyosiy yo‘nalishlar ilmiy jihatdan asoslaydi va davlat rahbariyatiga tegishli tavsiyalar taqdim etiladi.

[1] Small, C. A. (2013). Global antisemitism: A crisis of modernity. Volume V: Reflections. Institute for the Study of Global Antisemitism and Policy (ISGAP). – P. 73-188.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Maqolada Vali Nasrning “Shialar uyg‘onishi: Islom ichidagi mojarolar kelajakni qanday shakllantiradi” asarida shia geosiyosati va Eronning mintaqaviy siyosatini tahlil qilishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, Ray Takeyhning “Inqilob qo‘riqchilari: Oyatullohlar davrida Eron va dunyo” asari Eron tashqi siyosatining ideologik va pragmatik jihatlarini tahlil qilishda muhim manba bo‘ldi.

Eron siyosiy tahlil markazlarining tashqi siyosatdagi o‘rnini o‘rganish uchun sifat, qiyosiy,diskursiv, keys-study tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida siyosiy tahlil markazlari (think-tanks) o‘ziga xos, murakkab va ko‘p bosqichli jarayonni qarab oladi. Eron tahlil markazlari klassik ma’nodagi mustaqil ilmiy-tahliliy institutlar emas, balki davlat siyosiy tizimiga chuqur integratsiyalashgan, uning strategik va ideologik yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlovchi hamda asoslovchi muhim intellektual instrument sifatida faoliyat yuritadi. Shu jihatdan, tashqi siyosatni shakllantirish jarayonida bevosita qaror qabul qiluvchi subyekt emas, balki qarorlar uchun zarur bo‘lgan analitik asos va diskursiv muhitni yaratib beruvchi institut sifatida namoyon bo‘ladi. Eron siyosiy tahlil markazlari tashqi siyosatning turli yo‘nalishlarida muayyan funksiyalarni bajaradi.

‘‘Institute for Political and International Studies’’ (IPIS) - Eron Tashqi ishlar vazirligi huzurida 1983- yilda tashkil etilgan siyosiy tahlil markazi bo‘lib, Eronning tashqi siyosat strategiyalarini ilmiy tahlil qilishga ixtisoslashgan. Institut ilmiy tadqiqot, arxiv va xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo‘nalishlarini qamrab oladi va siyosiy qaror chiqarishga katta ta’sir ko‘rsatadi. IPIS arxivida 50 milliondan ortiq hujjatlar va tarixiy manbalarni saqlaydi, bu esa Eron tashqi siyosat tarixini o‘rganish uchun noyob resursga aylantiradi[2]. 2013–2015- yillarda P5+1 (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy va Germaniya) mamlakatlari bilan olib borilgan yadro muzokaralari Qo‘shma Kompleks Harakatlar Rejasi (Joint Comprehensive Plan of Action - JCPOA) deb nomlangan kelishuv Eron tashqi siyosatining eng murakkab va strategik diplomatik jarayonlaridan biri bo‘ldi[3]. Bu muzokaralar davomida Eronning yadroviy dasturini nazorat ostiga olish va sanksiyalarni kamaytirish masalalari ko‘tarilgan bo‘lib, global siyosat va mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. IPIS muzokaralar jarayonida bevosita ilmiy- analitik tayyorgarlik va strategik maslahatlar bilan shug‘ullangan asosiy markazlardan biri sifatida ishtirok etdi. Xususan, institut ichidagi tahliliy guruhlar JCPOA bo‘yicha P5+1 bilan muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rish va Eron delegatsiyasining pozitsiyasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan hisobotlar tayyorlagan. Markaz ekspertlari tomonidan yozilgan tahliliy maqolalar, hisobotlari Eron delegatsiyasiga muzokaralar davomida taktik qarorlarni belgilashda, shuningdek, Eron pozitsiyasini xalqaro hamjamiyatga tushuntirishda yordam berdi. Bundan tashqari, 2014- 2015- yillarda IPIS xorijiy tahlil markazlar bilan hamkorlikni kengaytirgan. Masalan, Eron Tashqi ishlar vazirligi va IPIS tashabbusi bilan shakllangan ‘‘Iran Experts Initiative’’ orqali G‘arbdagi akademiklar va ekspertlar tarmog‘iga qo‘shimcha yordam ko‘rsatish maqsad qilingan[4]. Bu tarmoqning maqsadi Eronning tashqi siyosat pozitsiyasini ilmiy markazlar va ilmiy platformalarda ilgari surish bo‘lib, JCPOA muzokaralari doirasida bir

[2] Institute for Political and International Studies. (n.d.). History. https://www.ipis.ir/en/viewpage/13100/history

[3] Wastnidge, Edward. (2017). Central Asia in the Iranian Geopolitical Imagination. Cambridge Journal of Eurasian Studies 1. 65-342 pp. DOI: http://doi.org/10.222611YRJ04

[4] Bozorgmehr Sharafedin (2024, February 2) Covert Ties Between Iran and International Crisis Group. Retrived from https://content.iranintl.com/en/investigates/covert-ties-between-iran-and-the-international-crisis-group/index.html

qator xorijiy maqolalar va intervyular orqali Eron pozitsiyasini targ‘ib qilgan. Xususan, 2014–2015-yillarda Eronning yadro dasturi bo‘yicha tinch yechim tarafdori bo‘lgan G‘arbdagi bir qator ekspertlar yozgan maqolalarda Eron pozitsiyasini AQSh va Yevropa ommaviy axborot vositalarida himoya qilgan. JCPOA muzokaralarda nafaqat rasmiy hukumat delegatsiyalari, IPISning tahliliy guruhi ham strategik qarorlarni tayyorlashda xizmat qilgan. Xususan, institut bir qancha tahliliy jurnallari, shu jumladan ‘‘Events and Analyses’’, ‘‘Foreign Policy va Central Asia and the Caucasus’’ kabi periodikalarda JCPOA bo‘yicha tahlillarni muntazam nashr etgan[5]. IPIS bevosita Tashqi ishlar vazirligiga bog‘liq bo‘lganligi sababli mustaqil va tanqidiy fikr bildirish imkoniyati cheklangan. Bundan tashqari, ilmiy tahlil ko‘pincha rasmiy siyosiy pozitsiyani qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Center for Strategic Research (CSR) - Eron Respublikasi Maslahat Kengashi (Expediency Council) huzurida 1989-yilda tashkil etilgan strategik tahlil markazi bo‘lib, uning asosiy vazifasi Eronning ichki va tashqi siyosat yo‘nalishlariga ilmiy asoslangan strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. CSR o‘z faoliyati davomida mintaqaviy jihatdan juda muhim bo‘lgan Suriya va Livan siyosatiga oid strategik tahlillarni yoritishda markaziy o‘rin tutgan. Eron tashqi siyosatining Livandagi eng muhim komponenti Hizbulloh bilan munosabatlar tizimi hisoblanadi[6]. CSR tomonidan Livandagi Hizbulloh faoliyati, siyosiy munosabatlari, ijtimoiy hamkorlik tarmoqlari va mintaqaviy xavfsizlik strategiyalariga oid qator hisobotlar tayyorlangan[7]. 2011–2015 yillar oralig‘ida CSR Livandagi siyosiy muhit va Hizbullohning harbiy-siyosiy salohiyatiga oid bir nechta strategik tahliliy hisobotlar chop etdi. Masalan, institutning 2012-yilda e’lon qilingan “Livan siyosiy tuzilmasi va mintaqaviy o‘zgarishlar” nomli hisobotida Hizbullohning mintaqaviy siyosatdagi o‘rni tahlil qilingan[8]. Mazkur hisobotda Hizbullohning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, ichki siyosatda roli, shuningdek, Suriya urushidagi strategik vazifalari batafsil yoritilgan. Institut tahlilchilari Hizbullohning Suriya hukumati bilan strategik hamkorligi Eronning mintaqaviy siyosat maqsadlarini amalga oshirishda asosiy tayanch bo‘lganini qayd etganlar.

CSR hisobotlari asosida Eron siyosiy rahbariyati Livanga bo‘lgan strategik yondashuvini optimallashtirish uchun bir qator qarorlar qabul qildi. Masalan, 2013–2016 yillar oralig‘ida Eron hukumati Hizbulloh bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, unga harbiy-moliya yordamlarini ko‘proq yo‘naltirish hamda diplomatik maydonda Hizbulloh pozitsiyasini himoya qilish uchun ko‘plab tashabbuslar bildirdi. CSRning tahliliy tavsiyalari siyosiy qarorlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Suriya fuqarolar urushi (2011–2021) davrida CSR tomonidan nashr etilgan “Suriya mojarosi va mintaqaviy xavfsizlik” kabi strategik tahlillar hukumat qarorlarini qo‘llab-quvvatlashda ishlatilgan[9]. CSR mutaxassislari Suriya prezidenti Bashar al-Asadning hukumatini qo‘llab-quvvatlash siyosati Eronning mintaqaviy strategiyalari uchun muhim ekanini qayd etib, bu yo‘nalishda resurslar va diplomatik imkoniyatlarni optimallashtirish bo‘yicha takliflar berishgan. Biroq, CSRning siyosiy elitaga juda yaqinligi mustaqil tanqidiy fikr bildirish qobiliyatini cheklaydi. Institut

[5] Masoudipour, H., Karimifard, H., Yousefi, B. & Akbarzadeh, F. (2019). Geopolitics of Energy and Foreign Policy of the Islamic Republic of Iran (1357–1396). Two Scientific Quarterly Journals of Political Science. 434–514 pp.

[6] Norton, A. R (1991). ‘‘Lebanon after Al-Ta'if: Is the Civil War Over?’’. Middle East Journal 45, no.3. 457–73 pp.

[7] Hamidreza Azizi, Julien Barnes – Dacey (2024, 5 June) Beyond proxies: Iran’s deeper strategy in Syria and Lebanon. Retrived from: https://ecfr.eu/publication/beyond-proxies-irans-deeper-strategy-in-syria-and-lebanon/

[8] A. Zelinskyi (2005, January 7) A Political and Military Activities of the Lebanese Hezbollah in 2011-2022 and their Results (Part 1). 167-184 pp. Retrived from: https://journal.ivinas.gov.ua/pwh/article/view/330

[9] Abdo, Geneive (2011 August 25). “How Iran Keeps Assad in Power in Syria.” Foreign Affairs. 5-11 pp.

rasmiy davlat yo‘nalishlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi, lekin siyosatning muqobil variantlari bo‘yicha ochiq tanqidiy tahlil olib borishi cheklangan. Masalan, Hizbulloh bilan strategik hamkorlikning ijtimoiy va inson huquqlari sohasidagi salbiy oqibatlari bo‘yicha institutda o‘tkazilgan tadqiqotlar nisbatan kam bo‘lib, mamlakat ichki siyosatidagi cheklovlar tufayli bu mavzularda ilmiy tanqidlar kam uchraydi. Shuningdek, CSRning Suriya va Livan bo‘yicha strategik tahlillari Eron hukumatining rasmiy siyosat strategiyasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, mustaqil ekspert tahliliga nisbatan kamroq joy ajratadi. Bu esa o‘z navbatida strategik qarorlar qabul qilish jarayonida muqobil yondashuvlar va tanqidiy fikrlarning yetishmasligiga olib keladi, bu esa mintaqadagi murakkab vaziyatlarda samarali siyosat ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Xususan, 2014-2015 yillarda Suriya mojarosi bo‘yicha nashr etilishi rejalangan ba’zi strategik tahlillar hukumatning diplomatik siyosati bilan fundamental farq qilgani sababli ommaviy e’lon qilinmagan yoki qayta ishlangan. CSRning siyosiy elitaga yaqinligi mustaqil tahlil markazi sifatida imkoniyatini cheklaydi.**Majlis Research Center (MRC) -** Eron Islom Respublikasi parlamenti (Majlis) huzurida 1989-yilda tashkil etilgan ilmiy-analitik markaz bo‘lib, uning asosiy vazifasi qonun loyihalari va siyosiy tashabbuslarni ilmiy asoslab, ekspertizadan o‘tkazishdan iborat. MRC parlament deputatlari va siyosatchilariga murakkab masalalarni tahlil etgan holda aniq tavsiyalar beradi, shu orqali qonunchilik jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MRCning tashqi siyosatga oid faoliyati, ayniqsa 2010-yillarda AQSh tomonidan Eron iqtisodiyotiga nisbatan joriy etilgan sanksiyalar fonida aniq ko‘rinish topgan. Xususan, 2010 va 2012-yillarda AQSh Kongressi ‘‘Comprehensive Iran Sanctions, Accountability, and Divestment Act’’ sanksiyalar paketlarini qabul qilgandan so‘ng, Eron iqtisodiyoti keskin bosim ostiga tushdi[10]. Bu sanksiyalar nafaqat energetika sektorini, balki moliyaviy tizim, tashqi savdo va investitsiya oqimlarini ham qamrab oldi. Mazkur murakkab strategik vaziyatda MRC mamlakat tashqi savdo siyosati va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy-tahliliy hisobotlar tayyorladi. Markaz ekspertlari tomonidan tuzilgan tahlillar sanksiyalar ta’sirini baholash, iqtisodiy blokadaga mos strategiyalar ishlab chiqish va ularga qonunchilik asosida yechimlar taklif qilishda muhim rol o‘ynadi. Misol uchun, MRCning 2012-yilda chop etilgan “Sanksiyalar va Eron moliya sektori: strategik javoblar” nomli monitoringi sanksiyalar ostidagi banklar tizimining qiyinchiliklarini batafsil tahlil qildi[11]. Ushbu hisobotda Eron banklarining xalqaro to‘lov tizimlari bilan aloqalarini qayta tashkil etish, alternativ moliyaviy mexanizmlarga o‘tish va investitsiyalarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Parlament deputatlari ushbu tavsiyalar asosida bir qator qonun loyihalarini ishlab chiqdilar yoki qayta ko‘rib chiqdilar, bu esa iqtisodiy siyosatni sanksiyalar sharoitida moslashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, MRC 2013-2014 yillarda “Tashqi savdo va energetika eksporti: sanksiyalarga moslashuv strategiyalari” mavzusidagi ekspert tahlillarida Eron eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, AQSh sanksiyalaridan chetda qolgan bozorlarni topish hamda energetika mahsulotlarini soddalashtirilgan to‘lov usullari orqali sotishni tavsiya qildi. Bu tavsiyalar parlamentda ko‘rib chiqilib, Eron savdo va energetika komissiyalari bilan hamkorlikda tashqi savdo siyosatini qayta yo‘naltirish imkonini berdi.

[10] Majlis Research Center (2024). Evaluation of the 2021 National Budget Bill from the Perspective of Development Level. Majlis Research Center of the Islamic Republic of Iran. https://rc.majlis.ir/fa/report/show/1667927

[11] O‘sha manba

Markaz parlament huzurida faoliyat yuritgani sababli siyosiy fraksiyalar, komissiyalar va davlat idoralari ta’siri ayrimlar tahlillarda sezilib turadi. Natijada, mustaqil tanqidiy tahlil imkoniyati cheklanadi[12]. Masalan, sanksiyalar davrida MRC tomonidan sanksiyalarga qarshi qat’iy yondashuvdan voz kechish yoki ichki iqtisodiy liberallashtirish yo‘nalishlarini ilgari suruvchi tavsiyalar nisbatan kam edi, chunki parlamentdagi siyosiy konsepsiyalar asosan davlatning mustahkam qarshi strategiyasini talab qilgan.

Iranian Institute for International Studies (IIIS) - Eron Tashqi ishlar vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi ilmiy-tahliliy markaz bo‘lib, uning asosiy vazifasi global va mintaqaviy geosiyosiy jarayonlarni o‘rganishdan iborat. IIISning tadqiqotlari Eron tashqi siyosatining strategik qarorlarini shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi, chunki u geosiyosiy qarorlarni prognoz qilish, mintaqaviy voqealarni oldindan baholash va diplomatik pozitsiyalarni ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan. Masalan, 2010–2020 yillarda IIIS tomonidan Yaqin Sharqdagi geosiyosiy qarorlar, jumladan Afg‘oniston va Iroqdagi siyosiy vaziyatlar bo‘yicha bir qator tahliliy tadqiqotlar olib borildi[13]. Tahlillar Eron tashqi ishlar vazirligi va yuqori siyosiy rahbariyat uchun mintaqaviy strategik qarorlarni tayyorlashda maslahat manbayi bo‘ldi. IIISning “Iroq siyosiy barqarorligi va Eron manfaatlari” (2014) va “Afg‘oniston xavfsizlik va siyosiy qarorlari” (2016) kabi hisobotlari orqali Eron diplomatik va xavfsizlik bo‘yicha strategiyalarini oldindan shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

IIISning ilmiy yondashuvi asosida Eron nafaqat mintaqaviy voqealarni tahlil qiladi, balki ular yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni oldindan aniqlashga harakat qiladi. Masalan, IIIS ekspertlari 2014-yilda Iroqdagi ekstremistik guruhlar faoliyatini baholab, Eronning diplomatik va xavfsizlik choralarini moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar berdi. Shu orqali institut tashqi siyosatni ilmiy asoslash va qaror qabul qiluvchi rahbariyatni oldindan ogohlantirishda bevosita rol o‘ynadi. Shunga qaramay, IIISning asosiy cheklovi shundaki, u asosan ilmiy-tahliliy tavsiyalar bilan cheklangan va qaror qabul qilish huquqi yo‘q. Institutning tahlillari faqat maslahat manbayi sifatida ishlatiladi va ularning tavsiyalari har doim amaliy siyosiy qarorlar bilan bevosita uyg‘unlashmaydi.

Supreme National Security Council Research Centers (SNSC Centers) esa Eron milliy xavfsizlik va harbiy strategiyalarini ishlab chiqish jarayonida bevosita rol o‘ynaydi. Markaz harbiy operatsiyalar, mintaqaviy xavfsizlik va strategik rejalashtirish bo‘yicha rahbariyatga aniq, ilmiy asoslangan ma’lumotlar taqdim etadi. Masalan, Suriya va Iroqdagi harbiy operatsiyalar davrida SNSC Centers ekspertlari mintaqaviy xavf-xatarlarni baholash, harbiy strategiyalarni modellashtirish va amaliy tavsiyalarni yuqori xavfsizlik rahbariyatiga yetkazish bo‘yicha faol ish olib bordi. Suriya hukumati va proksi kuchlar bilan Eron strategik hamkorligini tahlil qilib, harbiy operatsiyalar natijalarini baholashga yordam berdi. Masalan, 2015-yilda Suriya shimolidagi harbiy operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha markazning tahlillari Eron harbiy va diplomatik strategiyasini optimallashtirishga xizmat qilgan. Shu tarzda, SNSC Centers nafaqat ilmiy tahlil, balki amaliy strategik qarorlar qabul qilish jarayonida ham markaziy rol o‘ynaydi.

Eron aql markazlari masalasida turli olimlar o‘ziga xos yondashuvlarni ilgari surgan. Xususan, Vali Nasr Eron siyosiy tizimi ekspert hamjamiyati va siyosiy institutlar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Eron tahlil markazlari mustaqil siyosiy alternativalar ishlab chiqishdan ko‘ra, davlat manfaatlarini ilmiy asoslash va qo‘llab-

[12] Mojtahed Zadeh, Pirouz (2012). The Philosophy and Function of Geopolitics (Concepts and Theories in the Era of Virtual Space); Tehran: Samit Publications, first edition. – P. 91-120.

[13] Wrobel, Ralph (2014). South Korea’s Reunification Think Tanks: The Development of a Marketplace for Ideas, The German Journal on Contemporary Asia, 3. 5-24 pp.

quvvatlashga ko‘proq yo‘naltirilgan[14]. Anoushiravan Ehteshamiga ko‘ra, Eron siyosiy tahlil markazlari “policy-making” emas, balki “policy-justification” funksiyasini bajaradi, ya’ni yangi siyosat ishlab chiqishdan ko‘ra, mavjud siyosiy kursni legitimlashtirish va uni nazariy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi[15]. Ray Takeyh Eron tashqi siyosatini “ideologiya va pragmatizm uyg‘unligi” sifatida tavsiflab, think-tanklar aynan shu ikki omil o‘rtasidagi muvozanatni tushuntirish va asoslashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Takeyhning fikricha, Eron siyosiy tahlil markazlari davlat siyosatini shakllantirishdan ko‘ra, uning konseptual va ideologik asoslarini ishlab chiqishda faolroqdir[16].

Tahlil jarayonida Eron siyosiy tahlil markazlari faoliyatiga xos bo‘lgan qator tizimli muammolar ham aniqlandi. Eng muhim muammolardan biri bu institutsional mustaqillikning past darajasidir. Ko‘plab aql markazlari bevosita davlat organlariga bo‘ysunadi yoki ular bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu esa ularning mustaqil va tanqidiy fikr bildirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Yana bir muhim muammo Eron tahlil markazlarining xalqaro ilmiy hamjamiyatdan nisbatan ajralganligidir. Aql markazlari tarmog‘iga yetarli darajada integratsiyalashmaganlik, ilmiy almashinuvning cheklanganligi va xalqaro hamkorlikning sustligi markazlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Eron siyosiy tahlil markazlarini to‘liq samarasiz yoki faqat salbiy institut sifatida baholash bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Aksincha, ular markazlashgan siyosiy tizim sharoitida muhim stabilizatsion rol o‘ynaydi. Ular siyosiy qarorlarning izchilligini ta’minlash, strategik yo‘nalishlarni muvofiqlashtirish va davlat ideologiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mintaqaviy beqarorlik, geosiyosiy bosim va xalqaro sanksiyalar sharoitida bu kabi markazlashgan analitik tizim davlat uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida siyosiy tahlil markazlari muhim rol o‘ynaydi. Ular mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki davlat siyosatini ilmiy asoslash, strategik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash va siyosiy diskursni shakllantirishga xizmat qiluvchi intellektual instrument sifatida namoyon bo‘ladi. IPIS, CSR, MRC, IIIS va SNSC kabi markazlar orqali tashqi siyosat konseptual jihatdan ishlab chiqiladi va amaliy jihatdan mustahkamlanadi. Markazlar faoliyati markazlashgan siyosiy tizim va diniy-mafkuraviy asoslar ta’sirida cheklangan bo‘lib, institutsional mustaqillik va tanqidiy yondashuv yetishmasligi kuzatiladi. Shunga qaramay, mazkur tahlil markazlari Eron tashqi siyosatining izchilligi, barqarorligi va strategik moslashuvchanligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

[14] *Vali Nasr.* (2006). The Shia revival: How conflicts within Islam will shape the future. W.W. Norton & Company. P. 56-324.

[15] *Anoushiravan Ehteshami* (2002). After Khomeini: The Iranian Second Republic. Routledge. P. 78 – 264.

[16] *Takeyh, R.* (2009). Guardians of the Revolution: Iran and the World in the Age of the Ayatollahs. Oxford: Oxford University Press. P. 45 – 316.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Small, C. A. (2013). Global antisemitism: A crisis of modernity. Volume V: Reflections. Institute for the Study of Global Antisemitism and Policy (ISGAP). 188 p.
2. Institute for Political and International Studies. (n.d.). History. https://www.ipis.ir/en/viewpage/13100/history
3. Wastnidge, Edward. (2017). Central Asia in the Iranian Geopolitical Imagination. Cambridge Journal of Eurasian Studies 1. 65-342 pp. DOI: http://doi.org/10.222611YRJ04
4. Bozorgmehr Sharafedin (2024, February 2) Covert Ties Between Iran and International Crisis Group. Retrived from https://content.iranintl.com/en/investigates/covert-ties-between-iran-and-the-international-crisis-group/index.html
5. Masoudipour, H., Karimifard, H., Yousefi, B. & Akbarzadeh, F. (2019). Geopolitics of Energy and Foreign Policy of the Islamic Republic of Iran (1357–1396). Two Scientific Quarterly Journals of Political Science. 434–514 pp.
6. Norton, A. R (1991). ‘‘Lebanon after Al-Ta'if: Is the Civil War Over?’’. Middle East Journal 45, no.3. 457–73 pp.
7. Hamidreza Azizi, Julien Barnes – Dacey (2024, 5 June) Beyond proxies: Iran’s deeper strategy in Syria and Lebanon. Retrived from: https://ecfr.eu/publication/beyond-proxies-irans-deeper-strategy-in-syria-and-lebanon/
8. A. Zelinskyi (2005, January 7) A Political and Military Activities of the Lebanese Hezbollah in 2011-2022 and their Results (Part 1). 167-184 pp. Retrived from: https://journal.ivinas.gov.ua/pwh/article/view/330
9. Abdo, Geneive (2011 August 25). “How Iran Keeps Assad in Power in Syria.” Foreign Affairs. 5-11 pp.
10. Majlis Research Center (2024). Evaluation of the 2021 National Budget Bill from the Perspective of Development Level. Majlis Research Center of the Islamic Republic of Iran. https://rc.majlis.ir/fa/report/show/1667927
11. Mojtahed Zadeh, Pirouz (2012). The Philosophy and Function of Geopolitics (Concepts and Theories in the Era of Virtual Space); Tehran: Samit Publications, first edition. – P. 91-120.
12. Wrobel, Ralph (2014). South Korea’s Reunification Think Tanks: The Development of a Marketplace for Ideas, The German Journal on Contemporary Asia, 3. 5-24 pp.
13. Vali Nasr. (2006). The Shia revival: How conflicts within Islam will shape the future. W.W. Norton & Company. 324 p.
14. Anoushiravan Ehteshami (2002). After Khomeini: The Iranian Second Republic. Routledge. 264 p.
15. Takeyh, R. (2009). Guardians of the Revolution: Iran and the World in the Age of the Ayatollahs. Oxford: Oxford University Press. 316 p.